

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 498 sahifa.

2025-yil, 11-oktyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA KAMBAG'ALLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQRUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'yidinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамолевна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидахраловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLİYAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	355
Yusupov Farxod Adamboyevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI	359
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	363
Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	369
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	
RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RSIDA.....	374
Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA "XIZMATLAR IPOTEKASI" MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI	379
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЛЫВАНИИ ЛУКА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ.....	384
Суюнов Шохзодбек Мурод угли	
XORIJIY DAVLATLAR SANOAT IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI (YAPONIYA, KOREYA VA GERMANIYA MISOLIDA)	389
Mansurova Sayyora Baxtiyor Kizi	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI HISOBGA OLIISHDA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH	395
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	399
Muminov Sherzod Kholmirzaevich	
DIGITALIZATION OF AGRICULTURAL PRODUCTS FOR EXPORT	404
Azimov R.B.	
AHOLI JON BOSHIGA UMUMIY DAROMADLAR HAJMINI TREND MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH	409
Xolto'rayev Islom Ilhomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI BANDLIK SHAKLLARI	416
Sayipov Begzod Rahimovich	
TIJORAT BANKLARINING YANGI DAVR SHAROITIDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA INDIKATORLARI	422
Sadikov Iskandar Gayratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	427
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	



MAHALLIY BUDJET SOLIQLI DAROMADLARI BAZASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	433
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
TOSHKENT SHAHRIDAGI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ QARZDORLIGI TAHLILI	438
Soipov Boburmirzo Nosirjon o'g'li	
РОЛЬ ЖИЛИЩНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СИСТЕМЕ КОМПЛЕКСНОГО РАЗВИТИЯ ТЕРРИТОРИЙ МЕЗОУРОВНЯ	446
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
TO'QIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA XORIJ TAJIRIBALARINING ZARURLIGI	454
Abdullayev Dostonbek G'ofurjon o'g'li	
TURISTIK KLASSTERLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI	458
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RESURS TA'MINOTI BOSHQARUVINING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA MODELLARI	462
Arziqulova Oybar chin Eshquvat qizi	
XIZMATLAR SEKTORIDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR VA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI QONDIRISH MEXANIZMLARI	467
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА	472
Базаров Бердымурад Улугмуродович, Атавуллаева Саида Джумабекмуродовна	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	478
Ho'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING RO'LI	483
Nabiyeva Muxabbat Djabirxanovna	
"HOW GREEN INVESETMENTS CAN EFFECT ON ECONOMIC GROWTH IN DEVELOPING COUNTRIES"	485
Farangiz Ma'rufjonovna Pirmatova	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURLAR MANBALARI VA ULARNING HAJMINI OSHIRISHNING ZARURIYATI	493
Abduraxmonov Akmal Nurmatov o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURLAR MANBALARI VA ULARNING HAJMINI OSHIRISHNING ZARURIYATI

Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li

TDIU, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining uzoq muddatli resurslar bazasini shakllantirish va mustahkamlash masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Banklarning barqaror faoliyati, kredit-investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda uzoq muddatli resurslarning ahamiyati tahlil qilinadi. Uzoq muddatli depozitlar, obligatsiyalar emissiyasi, xalqaro moliya institutlari kreditlari, davlat kafolatli mablag'lari va bank kapitali asosiy manbalar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Resurs bazasini mustahkamlashning makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ta'sirlari, jumladan, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, inflyatsiyani pasaytirish hamda banklarning likvidligini oshirish kabi jihatlar alohida tahlil qilingan. Global moliya bozorida yuz berayotgan o'zgarishlar va raqamli iqtisodiyot sharoitida resurslarni diversifikatsiya qilishning zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, uzoq muddatli resurslar, resurs bazasi, moliyaviy barqarorlik, kredit-investitsiya faoliyati, makroiqtisodiy barqarorlik, mikroiqtisodiy samaradorlik, moliya bozori, diversifikatsiya, raqamli iqtisodiyot.

Abstract: The article provides a scientific analysis of the formation and strengthening of long-term resource bases in commercial banks. The importance of long-term sources in ensuring banking stability, expanding credit and investment opportunities, and financing the real sector of the economy is examined. The main sources of long-term resources include term deposits, bond issuance, loans from international financial institutions, government-guaranteed funds, and bank capital. The study highlights the macroeconomic and microeconomic effects of strengthening the resource base, such as ensuring economic stability, creating new jobs, reducing inflation, and increasing bank liquidity. Furthermore, the necessity of diversifying resources under the conditions of global financial market changes and the digital economy is substantiated.

Key words: commercial banks, long-term resources, resource base, financial stability, credit and investment activity, macroeconomic stability, microeconomic efficiency, financial market, diversification, digital economy.

Аннотация: В статье научно обоснованы вопросы формирования и укрепления базы долгосрочных ресурсов коммерческих банков. Рассмотрено значение долгосрочных источников в обеспечении устойчивой деятельности банков, расширении их кредитно-инвестиционных возможностей и финансировании реального сектора экономики. Основные источники долгосрочных ресурсов определены как срочные депозиты, эмиссия облигаций, кредиты международных финансовых институтов, государственные гарантированные средства и банковский капитал. Особое внимание уделено макроэкономическим и микроэкономическим эффектам укрепления ресурсной базы: обеспечение экономической стабильности, создание новых рабочих мест, снижение инфляции и повышение ликвидности банков. Подчеркивается необходимость диверсификации ресурсов в условиях глобальных изменений на финансовом рынке и цифровой экономики.

Ключевые слова: коммерческие банки, долгосрочные ресурсы, ресурсная база, финансовая стабильность, кредитно-инвестиционная деятельность, макроэкономическая устойчивость, микроэкономическая эффективность, финансовый рынок, диверсификация, цифровая экономика.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, moliya bozorida globalashuv jarayonlari, kapital oqimlarining erkinlashuvi va yangi moliyaviy vositalarning keng qo'llanilishi sharoitida banklar faoliyati uchun uzoq muddatli resurslar bazasini shakllantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Chunki aynan uzoq muddatli resurslar banklarning kredit-investitsiya faoliyatini kengaytirish, iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish hamda aholiga ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishda tayanch manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan moliya-bank tizimini isloh qilishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash, ularning barqarorligini ta'minlash va



xalqaro moliya bozoridagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini kuchaytirishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot sharoitida uzoq muddatli resurslarni shakllantirishda qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, arzon va uzoq muddatli moliyaviy mablag'larning yetarli darajada mavjud emasligi, tijorat banklari o'rtasida raqobatning yetarli shakllanmagani, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning sustligi ushbu sohada dolzarb masalalar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur holat iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barqaror moliyalashtirish manbalarini izlab topish va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining uzoq muddatli resurslar bazasini shakllantirish va mustahkamlash masalalarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Ushbu maqolaning maqsadi tijorat banklari uzoq muddatli resurslar bazasining ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning shakllanish manbalarini aniqlash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatib berishdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida uzoq muddatli resurslarning bank faoliyatiga makro va mikroiqtisodiy ta'siri o'rganiladi, shuningdek, global moliya bozoridagi tendensiyalar va raqamli iqtisodiyot sharoitida resurslarni diversifikatsiya qilishning zarurligi asoslanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Diamond va Dybvig (1983) o'zining mashhur "Banking and Liquidity Creation" asarida banklarning uzoq muddatli resurslar bazasi ularning likvidlikni ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi[1]. Ularning nazariyasiga ko'ra, uzoq muddatli depozitlar bank tizimi uchun barqaror kreditlashni ta'minlab, iqtisodiy inqiroz davrida moliya bozorlaridagi notinchlikni yumshatadi.

Stiglitz (1994) bank resurslarining sifat tarkibini o'rgangan holda, uzoq muddatli moliyaviy manbalarni shakllantirish iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlashda alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatib o'tadi[2]. Unga ko'ra, qisqa muddatli resurslarga tayanish iqtisodiyotda moliyaviy beqarorlik xavfini kuchaytiradi, shuning uchun uzoq muddatli obligatsiyalar va xalqaro moliya institutlari kreditlari bank barqarorligi uchun zaruriy vositalardan biridir.

Mishkinning (2001) "The Economics of Money, Banking, and Financial Markets" asarida ta'kidlanishicha, banklarning uzoq muddatli resurslar bazasi nafaqat kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi, balki moliyaviy bozorlarning institutsional rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi[3]. Unga ko'ra, uzoq muddatli depozitlar va kapital bozori dan jalb etilgan mablag'lar banklarning raqobatbardoshligini oshiradi va ularning foiz siyosatini barqarorlashtiradi.

Ushbu olimlar bank tizimi barqarorligi bo'yicha tadqiqotlarida uzoq muddatli resurslar bazasini kuchaytirish mamlakatlarning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashini ko'rsatadi. Ularning fikricha, uzoq muddatli resurslar bazasiga ega bo'lgan banklar iqtisodiy inqirozlarni yengib o'tishda samaraliroq faoliyat yuritadi.

Mahalliy tadqiqotchi D.Sultanmuratovning (2025) dissertatsiyasida O'zbekiston tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash masalalari keng tahlil qilingan[4]. Olimning fikricha, milliy bank tizimida uzoq muddatli resurslarni shakllantirish jarayonida davlat kafolatlari, milliy obligatsiyalar bozori va pensiya jamg'armalarining mablag'lari muhim manbalar sifatida qoralishi lozim.

Sh.Saipnazarovning (2025) monografiyasida bank resurslari likvidligini oshirish masalalari o'rganilgan bo'lib, olim uzoq muddatli resurslarni jalb qilish banklarning risklarni diversifikatsiya qilish imkoniyatini kengaytirishini ta'kidlaydi[5]. Unga ko'ra, xalqaro amaliyot asosida uzoq muddatli resurslar bazasini mustahkamlash O'zbekistonda bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda strategik omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarining uzoq muddatli resurslar bazasini shakllantirish jarayonlari o'rganildi. Unda: uzoq muddatli resurslarning nazariy asoslari; ularning shakllanish manbalari (depozitlar, obligatsiyalar, xalqaro kreditlar, davlat kafolatlari, bank kapitali); makro va mikroiqtisodiy ta'siri; xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil; milliy bank amaliyotidagi muammolar va ularning yechimlari ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi va ularning kredit-investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishda uzoq muddatli resurslar alohida o'rin tutadi. Mazkur resurslar, avvalo, banklarning strategik rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish, iqtisodiyotning real sektorida yirik loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda aholiga ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish uchun muhim manba sifatida namoyon bo'ladi. Uzoq muddatli resurslarning shakllanishi turli xil manbalar hisobidan amalga oshiriladi, jumladan, uzoq muddatli depozitlar, obligatsiyalar



emissiyasi, xalqaro moliya institutlari kreditlari, davlat kafolatli resurslari hamda banklarning ichki kapitali shular jumlasidandir.

Bugungi global moliya bozorida kuzatilayotgan o'zgarishlar, kapital oqimlari hajmining ortishi va moliyaviy vositalar xilma-xilligining kengayishi tijorat banklari uchun resurslarni diversifikatsiya qilish zaruratini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida uzoq muddatli resurslarni jalb qilishda milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, bank tizimining rivojlanish bosqichi va davlat tomonidan qabul qilinayotgan islohotlar muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, banklar uchun uzoq muddatli resurslar manbalarini aniqlash va ularning samarali shakllanish mexanizmlarini ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tijorat banklari uzoq muddatli resurslarni mustahkamlashdan ko'zlangan maqsad iqtisodiyotdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini banklarning muddatli depozitlariga jalb qilish, shuningdek, davlat va nodavlat pensiya va investitsiya fondlari hamda sug'urta kompaniyalar mablag'larini tegishli shartlar asosida jalb etish hisobiga shakllantirish orqali ushbu mablag'larni iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishga yo'naltirishdan iboratdir.


Jahon iqtisodiyotining tobora globallasuvi va moliyaviy institutlar o'rtasida raqobatning kuchayishi jamiyatdagi mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishning zarurligini keltirib chiqarmoqda. Tijorat banklari ixtiyorida uzoq muddatli moliyaviy resurslarning yetishmasligi iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, turli darajadagi ijtimoiy va iqtisodiy risklarni kelib chiqishiga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatda uzoq muddatli moliyaviy resurslarni shakllantirmasdan turib, iqtisodiy muvaffaqiyatga erishib bo'lmagligini alohida ta'kidlamochimiz. Madomiki shunday ekan, tijorat banklari uzoq muddatli resurslarni shakllantirishning zamonaviy vositalarini amaliyotga tatbiq etilishi ularning faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi. Ammo, keyingi yillarda bu sohada hal etilishi lozim bo'lgan qator dolzarb masalalar vujudga kelmoqda. Buning asosiy sababi, bizning nazarimizda, xalqaro va mahalliy banklar amaliyotida tijorat banklari uzoq muddatli resurslarini mustahkamlash masalasi yuzasidan tegishli tadqiqot va tahlil ishlarini amalga oshirilmagani hisoblanadi. Bunga qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablar mavjud bo'lib, bizning nazarimizda, ularning asoslari quyidagilar hisoblanadi:

- yaqin-yaqingacha banklar uchun uzoq muddatli resurslarni jalb qilishda muammolar bo'lmaganligi, shu bilan birga, jamiyatda arzon va uzoq muddatli moliyaviy mablag'lar yetarli darajada mavjud bo'lganligi;
- tijorat banklari o'rtasida uzoq muddatli va arzon mablag'larni jalb qilish bo'yicha raqobatning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- iqtisodiyotning real sektorini uzoq muddatli mablag'larga bo'lgan talabining boshqa manbalar hisobidan qondirish imkoniyatlarining mavjudligi kabilar shular jumlasidan hisoblanadi.

Shu bilan birga, muddatli depozitga jalb qilingan mablag'lar tijorat banklariga barqaror kredit resurslari bazasini yaratish va barqaror foyda olish uchun xizmat qilgan, bularning barchasi tijorat banklariga uzoq muddatli resurslar bazasini shakllantirish bo'yicha kuchli ehtiyojni keltirib chiqarmas edi.

Xalqaro bank amaliyotida asosan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlardan keyin muddati jihatidan uzoq muddatli moliyaviy mablag'larga kuchli ehtiyoj paydo bo'ladi. Xususan, 1970–yillarga kelib bank likvidligini ta'minlashda va ularning foydasini oshirishda juda katta muammolar vujudga kela boshladi, bu jarayonni banklarning aktivlarini samarali boshqarish yoki samarali maqsadlarga joylashtirish orqali iloji bo'lmay qoldi. Bularning barchasi tijorat banklarida uzoq muddatli resurslar bazasini kengaytirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Tijorat banklarida uzoq muddatli resurslar bazasini mustahkamlashning zarurligini belgilovchi omillar quyidagi chizmada keltirilgan.



1-rasm. Tijorat banklari uzoq muddatli resurslari zarurligini belgilovchi omillar [6]



1-rasm ma'lumotlaridan bilishimiz mumkinki, tijorat banklari uchun resurs bazasini mustahkamlash masalasi nafaqat ularning ichki faoliyati, balki butun iqtisodiyotning barqarorligi va rivojlanishi uchun ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu jarayonning ta'siri ikki asosiy darajada — makroiqtisodiy va mikroiktisodiy kesimlarda ko'rinadi.

Birinchidan, banklarning mustahkam resurs bazasi milliy iqtisodiyotning umumiy barqarorligini ta'minlaydi. Bu shundan dalolat beradiki, uzoq muddatli va barqaror moliyaviy manbalarga ega bo'lgan banklar iqtisodiyotning real sektorini izchil moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, inflyatsiya va ishsizlik darajasini pasaytirish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishda banklarning resurs salohiyati katta rol o'ynaydi. Banklar tomonidan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va infratuzilma loyihalariga ajratiladigan moliyaviy resurslar yangi ish o'rinlari yaratadi, ishlab chiqarish hajmining oshishiga turtki beradi, bu esa o'z navbatida inflyatsion bosimni kamaytiradi.

Uchinchidan, bu jarayon aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashga xizmat qiladi. Barqaror kreditlash imkoniyatlari orqali aholining turmush darajasi, daromad manbalari va moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi.

Mikroiqtisodiy ko'lamda resurs bazasining mustahkamlanishi, avvalo, banklarning to'lov qobiliyati va likvidligini oshiradi. Ya'ni, banklar o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish va mijozlarning mablag'larini qaytarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, resurslarning yetariligi kredit berish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa korxonalar va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy ta'minotini yaxshilaydi. Natijada, bank tizimi iqtisodiyotda investitsion faollikni qo'llab-quvvatlovchi asosiy institut sifatida o'z rolini yanada kuchaytiradi. Nihoyat, resurs bazasining mustahkamlanishi bank risklarini pasaytirishga olib keladi. Sababi, diversifikatsiyalangan va uzoq muddatli resurslarga ega bo'lgan banklar turli iqtisodiy inqirozlar, foiz stavkalaridagi tebranishlar yoki valyuta risklariga nisbatan ancha chidamli bo'ladi.

O'zbekistonda bozor mexanizmlarining joriy etilishi natijasida bank resurslarini jalb qilishni markazdan rejalashtirish sharoitida qo'llanilgan rejali usullar amalda o'zining ahamiyatini yo'qotdi. Natijada, tijorat banklarida moliyaviy jihatdan barqaror va arzon resurs bazasini shakllantirish masalasi asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Tijorat banklari uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlashda moslashuvchanlikni hisobga olish asosida iqtisodiy munosabatlar jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga ko'nikma hosil qilishi kabi masalalari inobatga olinadi. Ushbu o'zgarishlarga tez moslashishi orqali bank uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash va daromadlarning barqarorligini saqlab qolishga erishishi muhim omil hisoblanadi.

Tijorat banklari uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlashda guruhlashni asosiy jihati, bankning ma'lum tarmoq va yo'nalish orqali resurslarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash bilan izohlanadi. Ushbu vazifa mijozlarning toifalarga bo'linishi, bank xizmatlariga bo'lgan talabni qondirish masalalarini e'tiborga oladi.

Shu bilan birga, banklarning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlashda mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi, respublika Markaziy bankining monetar siyosati, inflyatsiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir qiladi. Shuning uchun banklarning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlashda yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillarni hisobga olinishi va tahlil qilinishi resurslarni shakllantirish samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining shakllanishi natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ham iqtisodiy munosabatlarga bo'lgan qarashlari o'zgardi. Ya'ni, iqtisodiy munosabatlar tizimida xarakatlanayotgan asosiy xo'jalik sub'ektlarining maqsadi foyda olishga qaratilgan. Shuni hisobga olib, banklarning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlashda ushbu manfaatdorlikni hisobga olinmasligining mumkin emasligi yoki e'tibordan chetda qolmasligi isbot talab qilmaydigan aksiomadir. Shuning uchun banklar uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlashni tashkil etishda uning tijorat asosida taqsimot va qayta taqsimoti alohida ahamiyatga ega bo'lib, u amalga oshirilgan barcha jarayonlarning natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

E'tiborlisi shundaki, banklar uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlashning tijorat asosida tashkil etish uning aktiv operatsiyalari sifatiga bevosita bog'liq bo'lib, ushbu operatsiyalar orqali banklar o'z daromadlarini shakllantiradi va taqsimotni amalga oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyatida uzoq muddatli resurslar bazasini shakllantirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uzoq muddatli manbalar banklarning kredit-investitsiya imkoniyatlarini kengaytiradi, iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishni jadallashtiradi hamda bank tizimining likvidligi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarda uzoq muddatli resurslarni diversifikatsiya qilish amaliyoti keng qo'llanilmoqda, O'zbekistonda esa bu yo'nalishda hali to'liq imkoniyatlar ishga solinmagan. Shu sababli uzoq muddatli resurslar bazasini mustahkamlash banklar uchun strategik ustuvor vazifa hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Diamond, D. W., & Dybvig, P. H. (1983). *Bank runs, deposit insurance, and liquidity*. Journal of Political Economy, 91(3), 401–419.
2. Stiglitz, J. E. (1994). *The role of the state in financial markets*. In M. Bruno & B. Pleskovic (Eds.), Proceedings of the World Bank Annual Conference on Development Economics 1993 (pp. 19–52). Washington, DC: World Bank.
3. Mishkin, F. S. (2001). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets* (6th ed.). Boston: Addison-Wesley.
4. Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2008). *Finance, financial sector policies, and long-run growth*. Policy Research Working Paper No. 4469. Washington, DC: World Bank.
5. Sultanmuratova D. Sh (2025). *Tijorat banklarida resurs bazasi va uni mustahkamlashni takomillashtirish* (PhD dissertatsiyasi avtoreferati 16-b). Toshkent: TDIU.
6. Saipnazarov Sh.Sh (2023). *Moliyaviy injiniring metodologiyasini takomillashtirish*. Toshkent: TDIU 145-150-b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>